


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"
Andijon davlat texnika instituti rektori
U.M. Turdialiyev
28 07 2026-y.



**Ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni olish uchun
Andijon davlat texnika institutiga yakka tartibdagi suhbat
asosida o'qishga qabul qilish bo'yicha**

BAHOLASH MEZONI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Baholash mezonlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrda 606-sonli qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni olish tartibi to'g'risidagi NIZOM talablari asosida institutning Ilmiy Kengashida muxokama etilib ishlab chiqilgan. Talabgorlar o'qish istagini bildirgan ta'lim yo'nalishlariga Ilmiy Kengash tomonidan tasdiqlangan qarorga asosan kirish imtihonlarisiz, yakka tartibdagi suhbat orqali Andijon davlat texnika institutining 2-bosqichidan o'qishini davom ettirish uchun qabul qilish tartibini belgilaydi.

2. Quyidagi talablarga javob bergan talabalar yakka tartibdagi suhbat jarayonlarida qatnashish huquqiga ega bo'ladilar:

- Talabgorlar oliy ma'lumotga ega bo'lgan bo'lishi;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn ro'yxatdan o'tgan bo'lishi zarur.

2-bob. Suhbatning maqsadi

3. Suhbatning maqsadi oliy ta'limda o'qish istagini bildirgan talabgorlar yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, shaxsiy yutuqlari bilan o'rnak bo'la oladigan, mutaxassisligi bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardorligi va mohiyatini tushuna olishi, ularni o'zining bo'lajak sohasi uchun tadbiq eta olishi hisoblanadi.

3-bob. Suhbat jarayoni tartibi

4. Yakka tartibdagi suhbat uchun savollar Andijon davlat texnika instituti qabul komissiyasi tomonidan ishlab chiqilib, qabul komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

5. Suhbat jarayonida talabgorlarning har biriga quyidagi mavzular bo'yicha bittadan jami to'rtta savol beriladi:

- Mamlakatda tanlangan sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunishi. Mehnat faoliyati olib borayotgan soha bo'yicha umumiy ma'lumot bera olishi;
- Ikkinchi ta'lim sifatida tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish) hamda 2-ta'lim olishdan maqsadi va istiqboldagi rejalarini bayon eta olishi;
- Tanlangan sohasi (yo'nalishi) bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar xaqidagi fikrlarini bayon eta olishi;
- Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi (tanlangan ta'lim yo'nalishiga mos qo'shimcha savollarberish orqali baxolanadi).

6. Yakka tartibdagi suhbat bitiruvchining shaxsan ishtirokida o'tkaziladi. Bunda bitiruvchi suhbat komissiyasiga o'zining portfoliosini taqdim etadi.

7. Suhbatda ishtirok etish uchun talabgor suhbat komissiyasi tomonidan oldindan tasdiqlab qo'yilgan biletlardan birini ixtiyoriy ravishda tortadi. Tanlangan biletning raqamini Suhbat komissiyasiga eshittiradi. Suhbat komissiyasi talabgorga suhbatga tayyorlanish uchun 10 daqiqa vaqt beradi. Vaqt yakunlanganidan so'ng talabgor suhbatdan o'tadi.

8. Bitiruvchi tomonidan tayyorlangan portfolioning haqiqiyligiga talabgor javobgar bo'lib, yakka tartibdagi suhbat jarayonida qabul komissiyasi a'zolari tomonidan o'rganib chiqiladi. Portfolioning haqiqiyligini bilish uchun talabgorga qo'shimcha savollar berilishi mumkin.

9. Suhbat jarayonida Suhbat komissiyasining har bir a'zosiga ushbu Mezonning **1-ilovasiga** muvofiq namunaviy shakldagi talabgorning suhbat natijalarini qayd etish bayonnomasi (keyingi o'rinlarda — suhbat natijalarini qayd etish bayonnomasi) beriladi.

Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan suhbat natijalarini qayd etish bayonnomasiga har bir bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbat natijasiga ko'ra tegishli ballar belgilab boriladi va imzolanadi.

10. Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha suhbat jarayoni yakunlangach Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan to'ldirilgan suhbat natijalarini qayd etish bayonnomasidagi ballar qo'yiladi hamda komissiya a'zolari tomonidan imzolanib shu asosida ushbu Mezonning 2-ilovasiga muvofiq namunaviy shakldagi bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish qaydnomasi (keyingi o'rinlarda — suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish qaydnomasi) to'ldirilib, Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Talabgor tomonidan jami to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ball 100 ballni tashkil etadi.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish qaydnomasiga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a'zolari tomonidan imzolangan va to'ldirilgan suhbat baynida 60 ball va undan yuqori ball bo'lganida talabgor suhbatdan o'tgan hisoblanadi.

Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha o'tkazilgan suhbat natijalariga ko'ra suhbatdan o'tganlar ro'yxati shu kunning o'zida abituriyentlarga o'qib eshittiriladi. Bundan tashqari institutning rasmiy saxifasiga joylanadi.

11. Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish qaydnomasiga asosan talabalikka tavsiya etilganlar belgilangan muddatlarda to'lov-kontrakt shartlari bajarilgandan so'ng oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishining 2-bosqichiga o'qishga qabul qilinadi.

12. Suhbat komissiyasi tomonidan talabgorlarni baholash mezonlari quyidagicha taqsimlanadi (3-ilova):

№	Savollik	Ball
1-savol. Mamlakatda tanlagan sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunishi. Mehnat faoliyati olib borayotgan soha bo'yicha umumiy ma'lumot bera olishi.		
1.	Soha bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni tushunish darajasi	10 ball
2.	Soha bo'yicha islohotlarga munosabati	10 ball
3.	Sohani rivojlantirish bo'yicha islohotlarga taklif va tavsiyalari	5 ball
Jami		25 ball
2-savol. Ikkinchi ta'lim sifatida tanlagan bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish) hamda 2-ta'lim olishdan maqsadi va istiqboldagi rejalarini bayon eta olishi		
1.	Bakalavriatning mazkur yo'nalishini tanlashdan maqsadi va kelajak rejalar	10 ball

2.	Tanlagan kasbini jamiyatga va davlat rivojlanishiga ta'sirini tushunishi	15 ball
Jami		25 ball
– 3-bo'lim. Tanlangan sohasi (yo'nalishi) bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar xaqidagi fikrlarini bayon eta olishi.		
1.	Tanlangan sohasi (yo'nalishi) bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar xaqidagi fikrlarini bayon eta olishi.	25 ball
Jami		25 ball
– 4-bo'lim. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi (tanlangan ta'lim yo'nalishiga mos qo'shimcha savollar berish orqali baxolanadi).		
1.	Berilgan savolning mazmun mohiyatini tushuntirib berishi	15 ball
2.	Mazkur sohada ish tajribasining mavjudligi	10 ball
Jami		25ball

4-bob. Apellyatsiya berish tartibi

13. Suhbatlar o'tkazilishi davrida belgilangan tartibda apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

14. Apellyatsiya shikoyatlari suhbat natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida oliy ta'lim muassasasida to'g'ridan-to'g'ri yozma shaklda qabul qilinadi va apellyatsiya komissiyasi tomonidan murojaat qilganlarning sonidan kelib chiqqan holda bir kundan uch kungacha bo'lgan muddatda videoyozuv asosida ko'rib chiqiladi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

15. Mazkur baholash mezonini qo'llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

16. Ushbu baholash mezoni talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.